


KELISHILDI

TASDIQLANDI


**A. Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti rektori**


A. Ismailov

 3 oktyabr 2025-yil

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim
muassasalari agentligi huzuridagi
Pedagogik mahorat va xalqaro
baholash ilmiy-amaliy markazi
direktori**


D. Davidova

 3 oktyabr 2025-yil

**PEDAGOGIK OLIY MA'LUMOTGA EGA BO'LMAGAN
OLY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
PEDAGOGIK FAOLIYAT YURITISH HUQUQINI BERISH
BO'YICHA QAYTA TAYYORLASH KURSINING
YAKUNIY TEST SINOV**

SPETSIFIKATSIYASI

PEDAGOGIK FAOLIYAT YURITISH HUQUQINI BERISH BO'YICHA YAKUNIY TEST SINОВI SPETSIFIKATSIYASI

KIRISH

Qayta tayyorlov kurslarining yakuniy attestatsiyasi ta'lim tizimida faoliyat yuritishga tayyorlanayotgan mutaxassislarning zamonaviy pedagogik talablar asosida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga qaratilgan bo'lib, ular egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, metodik yondashuvlarni samarali tatbiq etish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashni ko'zda tutadi.

Spetsifikatsiya pedagogik faoliyat yuritish huquqini berish bo'yicha yakuniy test sinovining predmeti va qamrovini aniq belgilab, tarbiya va ilmiy fanlar hamda umumkasbiy fanlar doirasida tinglovchilarning pedagogik jarayonni tashkil etish, yosh va psixologik xususiyatlarni inobatga olish, o'qitish metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga qaratilgan.

I. Maqsad

Pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislarni pedagogik faoliyat yuritish huquqini beradigan qayta tayyorlash kursining yakuniy test sinovi orqali ularning pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini ishonchli, adolatli va shaffof tarzda baholashni tashkil etishdan iborat.

Ushbu hujjat test topshiriqlari tuzilishi, mazmun sohasi, kognitiv darajalar nisbati va baholash mezonlarini belgilab berib, bitiruvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda metodik yondashuvlarini kompleks baholash orqali ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. Baholash qamrovi: o'quv bloklari va fanlar

Yakuniy sinovda qo'llaniladigan test topshiriqlari A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etilgan pedagogik faoliyat yuritish huquqini beradigan qayta tayyorlash kursining o'quv reja va namunaviy o'quv dasturiga kiritilgan o'quv fanlari (modullari) tarkibini qamrab oladi.

Tarbiya va ilmiy fanlar

1. Umumiy o'rta ta'limning me'yoriy asoslari
2. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi

Umumkasbiy fanlar

1. Umumiy psixologiya
2. Umumiy pedagogika
3. Tarbiyaviy ishlar pedagogikasi
4. Umumta'lim fanlarni o'qitish metodikasi

5. O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish
6. Pedagogik texnologiyalar

III. Baholash konstruktorlari

T/r	Talablar	Konstruktlar	Test soni	Ulushi %
I. Tarbiya va ilmiy fanlar				
1.	Umumiy o'rta ta'limning me'yoriy asoslari	Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini, umumiy o'rta ta'limning me'yoriy hujjatlari bilan ishlashni bilishi;	1	2 %
2.	Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi	Inson organizmining yosh davrlari, asosiy fiziologik tizimlarning yoshga qarab o'zgarishi, psixofiziologik rivojlanish hamda maktab gigiyenasi, sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni bilishi. Ta'lim jarayonini yosh xususiyatlariga mos tashkil etish, sinfdagi gigienik sharoitni ta'minlash, o'quvchilarning sog'lig'ini kuzatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni qo'llay olishi. Sog'lom o'quv muhitini yaratish, gigienik talablar bajarilmagan holatlarni tahlil qilish, individual rivojlanishni farqlashi va amaliyotda qo'llash;	3	6 %
II. Umumkasbiy fanlar				
1.	Umumiy psixologiya	Psixologiya fanining predmeti, tuzilishi va asosiy tushunchalarini bilishi, sixologik tadqiqot metodlarini farqlashi va amaliyotda qo'llay olishi; Faoliyat, motivatsiya, xarakter, temperament va hissiy-emotsional holatni, shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonini tushunishi, tahlil qila olishi; O'quvchilarning yosh va psixik rivojlanish bosqichlarini farqlab, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan samarali ishlay olishi ularga mos yondashuvni qo'llay olishi; O'qituvchi psixologiyasi va pedagogik faoliyatning psixologik asoslarini anglab, amaliyotda qo'llay olishi;	7	14 %
2.	Umumiy pedagogika	O'zbekiston ta'lim tizimini bilishi, hozirgi davrdagi o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rnini anglashi, pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlarini amaliyotda qo'llay olishi, rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini, ta'limning mazmunini, kreativ ta'limni bilishi va amaliyotga tatbiq eta olishi, yaxlit pedagogik jarayonni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis va tahlil etishni bilishi, ta'lim muassasasi menejmenti faoliyatini, xalqaro baholash dasturlarini, pedagogik fikrlar tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalarini, pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini farqlay olishi, korreksion pedagogika asoslarini, inklyuziv o'qitishning asosiy tamoyillarini, xorijiy ilg'or pedagogik g'oyalarni amaliyotga joriy etishi;	10	20 %
3.	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	Tarbiya tizimida barkamol insonni ma'naviy tarbiyalash masalalarini, ta'lim-tarbiya jarayonida	5	10 %

		milliy qadriyatlarning ahamiyatini, intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish va rivojlantirishni, tarbiya texnologiyalari va tizimiga pedagogik yondashuvni, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni bilishi va amalda qo'llay olishi, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsadi, vazifalarini va ularni rejalashtirish metodikasini, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlardagi o'rmini, maktabda to'garak ishlarini, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishni, oila, mahalla va ta'lim muassasasining bola tarbiyasidagi o'rni haqida mulohaza yuritishni bilishi;		
4.	Umumta'lim fanlarni o'qitish metodikasi	Umumta'lim fanlarini o'qitish metodikasi yuzasidan mulohaza yuritish, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan umumta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablariga mos holda tashkil etishni, xorijiy mamlakatlarning ilg'or ish tajribasini tahlil qila olishi va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda umumta'lim fanlarini o'qitishda pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llay olishi, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalana olishi;	14	28 %
5.	O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	Ta'lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o'rmini, amaliy dasturlar asosida darslarni tashkil etishni bilishi, Microsoft Office dasturlarida fanga oid elektron ishlanmalar va taqdimotlar yaratish texnologiyalarini, multimedia darslari asosida ta'lim samaradorligini oshirishni, fanni o'qitishda internet tarmog'i vositalarini, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qila olishni, fanni o'rgatish jarayonining elektron boshqaruvini bilishi, media resurslardan xavfsiz foydalanish yo'llarini tahlil qila olishi;	4	8 %
6.	Pedagogik texnologiyalar	Zamonaviy pedagogik texnologiya haqida tushunchalarni bilishi, uning tarixiy rivojlanish davrlarini farqlay olishi, interfaol ta'lim, uning asosiy shakllari va ishtirokchilarini, muammoli ta'lim texnologiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlarini amaliyotga joriy eta olishi va mulohaza yuritishi;	6	12 %

IV. Test turlari

Y1 –To'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test.

Y2 – Bir necha javobli yopiq test.

Y3 – Moslikni tanlashga oid yopiq test.

Y4 – Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan test.

Eslatma: Texnik imkoniyatlar sababli testlarning ayrim turlarida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, testlar soni, ball miqdori hamda qiyinlik darajasi sinov natijalariga qarab yangilanib borishi mumkin.

V. Asosiy ko'rsatkichlar

O'quv fanlari	Topshiriq soni	Ajratilgan vaqt	Ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
8	50	100 daqiqa	100 ball	Bilish – 15 % Qo'llash – 70 % Mulohaza – 15 %

VI. Baholash mezonlari

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:

Agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball.

Agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VII. Imtihon tartib-qoidalarini

1. Ta'qiqlangan vositalar: Imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi. Qoidani buzgan tinglovchi testdan chetlashtiriladi va natijasi bekor qilinadi.

2. Axloq va intizom: Nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni rasmiylashtiradi va tinglovchi testdan chetlashtiriladi hamda natijasi bekor qilinadi.

VIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

- 1.01. Umumiy o'rta ta'limning me'yoriy asoslari. O'quv – uslubiy majmua, T.-2025.
- 1.02. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- 2.01. Umumiy psixologiya. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- 2.02. Umumiy pedagogika. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- 2.03. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- 2.04. Umumta'lim fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv – uslubiy majmua, T.-2025.
- 2.05. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- 2.06. Pedagogik texnologiyalar. O'quv – uslubiy majmua, Toshkent-2025.
- <https://lex.uz/docs/-6008663>
- <https://lex.uz/docs/-6786401>